



UDK: 821.161.1-3, 94(47)

“AJINASI BOR YO‘LLAR” ASARIDA DAVR VA QAHRAMON TIMSOLI

Muxtoraliyev Baxromjon

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya Anvar Obidjonning "Ajinasi bor yo‘llar" asari XIX asrning ikkinchi yarmidagi Turkistondagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni o‘z ichiga olgan biografik qissa bo‘lib, unda yozuvchi o‘z qahramonlari orqali o‘sha davrning murakkabliklarini tasvirlaydi. Asarda ruhiy kasallikka chalingan Abdurahim aka kabi personajlar orqali sho‘ro davrining soxta shiorlari va ijtimoiy muammolarini yoritadi. Yozuvchi tarixiy voqealar va shaxslarning taqdirларini muvofiqlashtirib, ularning o‘z hayotidagi kurashlarini, shuningdek, kutilmagan fojialar va qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro aloqalarini ko‘rsatadi.

Asar, xususan, qahramonlarning shaxsiy hayotidagi iztiroblar va ijtimoiy adolatsizliklar orqali o‘quvchida tarixiy xotira va insoniy muammolarga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. "Ajinasi bor yo‘llar" nafaqat o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muhitini aks ettiradi, balki insoniy his-tuyg‘ular va harakatlar orqali o‘quvchini chuqur fikr yuritishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar, Biografik qissa, Turkiston, Ijtimoiy jarayonlar, Siyosiy jarayonlar, Sho‘ro davri, Mafkura, Tarixiy voqealar, Insoniy his-tuyg‘ular, Ijtimoiy adolatsizlik, Folklor elementlari, Psixologik tasvir.

ПЕРИОДЫ И ГЕРОИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МОРЩИННЫЕ ДОРОГИ»

Аннотация Произведение Анвара Обиджона «Морщинистые дороги» представляет собой биографическую повесть, содержащую общественно-политические процессы в Туркестане второй половины XIX века, в которой писатель через своих героев описывает сложности того времени. Работа освещает ложные лозунги и социальные проблемы эпохи Шуры через таких персонажей, как Абдурахим, страдающий психическим заболеванием. Писатель координирует исторические события и судьбы людей, показывая их борьбу в собственной жизни, а также их взаимодействие с неожиданными трагедиями и трудностями.

Произведение пробуждает интерес читателя к исторической памяти и проблемам человечества, в частности через страдания и социальную несправедливость личной жизни героев. «Морщинистые дороги» не только отражают социально-политическую

среди своего времени, но и побуждают читателя глубоко задуматься через человеческие эмоции и поступки.

Ключевые слова: Анвар Обиджан, Морщинистые дороги, Биографическая повесть, Туркестан, Социальные процессы, Политические процессы, Эпоха Шуры, Идеология, Исторические события, Человеческие чувства, Социальная несправедливость, Фольклорные элементы, Психологический образ.

PERIODS AND HEROES IN THE WORK "WRINKLED ROADS"

Abstract Anvar Obidjon's work "Wrinkled Roads" is a biographical story that includes social and political processes in Turkestan in the second half of the 19th century, in which the writer describes the complexities of that time through his characters. The work illuminates the false slogans and social problems of the Shura era through characters such as Abdurahim, who suffered from a mental illness. The writer coordinates historical events and the destinies of individuals, showing their struggles in their own lives, as well as their interactions with unexpected tragedies and difficulties.

The work awakens the reader's interest in historical memory and human problems, particularly through the sufferings and social injustices of the characters' personal lives. "Wrinkled Roads" not only reflects the socio-political environment of its time, but also encourages the reader to think deeply through human emotions and actions.

Key words: Anvar Obidjon, Wrinkled roads, Biographical story, Turkestan, Social processes, Political processes, Shura era, Ideology, Historical events, Human feelings, Social injustice, Folklore elements, Psychological image

KIRISH

Ijodkor ham, ijod namunasi ham muayyan davrning natijasi. Ijtimoiy, siyosiy jarayonlar yozuvchi qalbida aks-u sadosini berib, u yaratgan asarda o‘z ifodasini topadi. Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar” nomli biografik qissasi nafaqat aks etgan davrning kengligi, balki qahramon va personajlar qamrovining ko‘pligi bilan ham ajralib turadi. Asardagi personajlarning aksariyati o‘z davrining farzandi sifatida fikr yuritadilar. Masalan, Oltiariqning Poloson qishlog‘ida ruhiy kasallikka chalingan va odamlarga o‘zini Vladimir Il‘ich Lelin deb tanituvchi Abdurahim aka ajabtovur qiliqlari bilan barchaning yuzida tabassum uyg‘otadi. El orasida “Abdurahim Il‘ich” laqabini olgan bu shaxs “Uralziz” mashinasi g‘ildiragi ostidan omon chiqib, “Hammang ovora bo‘lasan, Lelin o‘lmaydi!” der ekan bu bilan yozuvchi sho‘ro davlatining soxta, balandparvoz shiorlari ustidan o‘ziga xos tarzda kuladi. Sho‘ro davri mafkurasi bilan manqurtlashgan shaxslar soxta shiorlar ortidan quvib o‘z yo‘lini yo‘qotgan kimsalar fojiasini yozuvchi mahorat bilan aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yozuvchi asar voqealari tasvirini chor Rossiyasining Turkistondagi xonliklarni zab etish uchun 25 yil cho‘zilgan XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan urush oxir oqibat general-

gubernatorlikni tashkil etish bilan yakunlanganligi bilan boshlaydi. Oqmachit qal'asi himoyachilari general Pirovskiyga "Bizlar bir siqim porx va ko'chada bir kesak qolguncha, hamma qurollarimiz tamom sinib bitguncha jang qilamiz" deya xat yozishgani, Avliyoota, Pishpak, Chimkent, Iqon qal'asida og'ir janglar yuz bergani, ayollar, bolalar ham dushman bilan olishuvchga kirishib, o'liktepalar paydo bo'lib, Sirdaryo oqib borayotgan murdalarga to'lgani tasvirlanadi. 1865-yilda Toshkent Abdurahimbek Shodmon, Muhammad Soatboy, Saidazimboy Muhammad singari sotqinlar ko'magida bosib olingani, so'ng Po'latxon qo'zg'olonidan keyin Qo'qon xonligi tugatilganligi keltiriladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Olay malikasi" - Qurbonjon dodhoning o'n yildan ortiq vaqt davomida ruslarga tutqich bermay ko'rsatgan qarshiligi, andijonlik Dukchi Eshon qo'zg'olonining ayovsizlik bilan bostirilishi tafsilotlari bilan yozuvchi o'quvchini Oltiariqning Poloson qishlog'i tasviriga olib kiradi. Bu qishloqqa bir mahallar Turkistonning Boshkenti maqomidagi Bolasog'unga havas qilib nom nom berilgani, keyinchalik shevada buzilib aytila boshlaganligi bayon etiladi. Yozuvchi bobosi eshonlar avlodidan bo'lgan Bahromxon ilmga berilgan, kamgap, bosiq, taqvodor, o'ta royish, doimo o'ychan yuruvchi yigit bo'lgan ekan. Uning ikki uch ajdod naridagi bobo momolari bu yerga Marg'ilondan kelib qolgan. Muallifning bobosi Bahromxon eshonlar avlodidan bo'lib ota-onasining ko'p bor og'iz solishiga qaramay uzoq vaqt uylanishni ortga suradi va nihoyat Do'smat tog'aning bitta ko'zi ojiz, sovchi kelmayotganidan ichikib yurgan qizi Sarvinisoga uylanib savob olmoqchiligini aytadi. Otasi vafotidan keyin Eshonlik martabasi Bahromxonga xatlab beriladi. Bahromxon bir kuni bozorga yo'l olib, aravada sog'ligi yomonlashib ortga qaytadi. Uni uyg'ur oqsuyaklari (oxunlar) sulolasiga mansub Oyimbush otin kutib olibdi. Bahromxon unga bozorboshidan choyxonada choy ichib o'tirib, hushini yo'qotganini va bolasiga non topib berishga qurbi yetmagan bir bechorahol pulini olib qo'yganini aytib, duo qilishini so'raydi. O'zini ming marta bundan roziligini, olgan puli o'sha sho'ring qurg'urga buyurishini aytib, barchani hayratga soladi.

Chor hukumati Turkistonni XX asr boshlariga kelib paxta yetkazib beruvchi xomashyo bazaga aylantirdi. Bahromxon ellik yoshlar arafasida 1915-yilda vafot etadi. Undan o'n yoshli Obidjon, besh yoshli Sharofat yetim qoladi. 1916-yil qo'zg'oloni mustamlakachilar tomonidan ayovsiz bostirilishi yurning og'ir ahvolini yana-da og'irlashtiradi. Asarda Sarviniso buvining bir ko'zi ojiz bo'lib qolish sababini shunday izohlaydi: "Chechak toshganida kasal o'rnidan turmasligi lozimligini tabiblar alohida tayinlasharkan, aks holda tovonining tagidagi yara hali pishmasdan yorilib ketsa, bemorning bir yoki ikkala ko'zi ko'r bo'lib qolishi mumkin ekan". Totli qo'l ayol bo'lgan Sarvinisoning akasi Fayziboy oyog'ini sudrab yurgani uchun "mulla paypoq" laqabini olgan. Uning ikkinchi laqabi "baqavoy" edi.

Sarviniso buvi qarg'ishni bilmaydigan ayol bo'lib, uning qarg'ishlari "Ha, sandig'ing bug'doyga to'lgur", "Hu, bosgan izing orqangdan qolgur-a", "He, yaman bo'lgur" tarzida bo'lardi. Yaman bo'lguringiz nimasi, deb so'rasha, arablarda Yaman degan obod yurt bo'larkan shunaqa boy bo'lgin deyman-da, deb javob qilardi.

Asar syujeti davomida muallif - roviy - Anvar obrazi markaziy o‘rinni egallab boradi. Paxta punkitida torozbon bo‘lib ishlovchi Obidjon (muallifning dadasi B.M)ni 1942-yilda kamomatga yo‘l qo‘yib qamalib ketgach, xotini Surmaxon qizi Shaxodatni qaynasiga tashlab, boshqa erga tegib ketadi. Obidjon qamoqdan chiqib kelgach, Fayzobod qishlog‘idagi paxta punkitida tarozbon bo‘lib ishlay boshlaydi va ikkinchi bor Munisxon degan ayolga uylanadi. Obidjon qiyofasi asarda shunday tasvirlanadi: “ ... ancha keng fikrlovchi, axloq-odob tushunchasi qon-qoniga singgan, o‘ta harakatchan, ziyrak va kuzatuvchan kishi edi. Tengqurlari uning so‘zomonligi, ishga bor vujudi bilan yopishishi, abjirligi, fe‘li kengligi, kin saqlamasligi, barchaga ochiq qo‘lligi, beozorligi, tagdor hazillarga ustaligini alohida ta‘kidlab gapirishadi. Salga ta‘sirlanadigan darajada ko‘ngli bo‘shligi, dushmanlarga kechirimligi, ig‘volarga beparvoligi, boladek sodda va ishonuvchanligi, topgan mol-dunyosidan ertasini o‘ylamagan holda foydalanishni bilmasligi, ortiqcha ulfatbozligi kabi odatlarini esa uning qusurlariga yo‘yishadi”¹⁰⁴.

Muallif o‘zining Munisxon ismli dadasining ikkinchi xotinidan dunyoga kelishini asarning “Tug‘ilsak tug‘ilibmiz-da” qismida tasvirlaydi. Davr voqeligi qahramonlar kechmishi bilan uyg‘unlikda aks etib, biri ikkinchini to‘ldira boradi. Nikolay podshohning 1917-yil taxtdan voz kechib, hokimyat Kerinskiy boshliq muvaqqat hukumat qo‘liga o‘tishi, Qo‘qonda Turkiston muhtoriyati tuzilishi, so‘ng Lelin boshchiligidagi sho‘ro hukumati davlat to‘ntarishini amalga oshirib boshqaruvni qo‘lga olishi, 1918-yil ular doshnoqi armanlar otliq qo‘shini ishga solinib o‘n sakkizta qishloqqa o‘t qo‘yilgani, o‘n mingdan ziyod (ba‘zi ma‘lumotlarda o‘ttiz ming) odamlar qariyb butun oilasi bilan qirib tashlanishi bayon etiladi. Shu tariqa Turkiston Muxtoriyati tugatildi. Farg‘onada katta kuchga - ellik mingdan ziyod qo‘shinga ega bo‘lgan Madaminbek ham Ukrainadagi millatparvar qo‘mondon Maxno singari qizillar aldoviga uchib, boshqalarning qo‘li bilan qurbon bo‘lishi bayon etiladi. Turkistondagi xonliklar tugatilgach, vagon-vagon olib ketilgan oltinlar Rossiyada izsiz g‘oyib bo‘lganligi, amaldorlar o‘rtasida pinhona taqsimlanib olingani, sho‘rolar mahalliy xalqning qarshilini 1926-yildagina sindira olgani bayon etiladi. O‘zbek boshiga yigirmanchi yillardagi ocharchilik, qatag‘onlar, o‘ttizinchi yillardagi NKVD “uchlik”lari hukmi asosan o‘n minglab kishilarning otib tashlanishi Stalin lageriga surgunlar, qirqinchi yillarda miltiq ko‘tarishga holi kelgan millat vakillarining ikkinchi jahon urushi qushxonasiga haydab ketilishi, xatto militsiya va askarlarning bozorlarga bostirib kirib, tarozi tortgan chog‘ida 45 kgdan ortiq chiqqanlarni hali voyaga yetmagan bo‘lsa ham poyezdlarda to‘g‘ri fronlarga jo‘natish hodisalari, davrning murakkab, suronli manzaralarini aks ettiradi.

XULOSA

Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar” asari o‘z davrining ijtimoiy va siyosiy muhitini chuqur tahlil etuvchi biografik qissa sifatida ajralib turadi. Yozuvchi, o‘z asarida sho‘ro davrining mafkuraviy tizimini, xalq hayotining murakkabligini va shaxsiy fojialarni jonli

¹⁰⁴ Anvar Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘ZBEKISTON, 2015 – B. 44-45 (432 bet)

tasvirlaydi. Personajlar, jumladan, Abdurahim aka orqali sho‘ro davrining soxta shiorlariga qarshi ironiya bilan chiqadi.

Asar voqealari tarixiy kontekstga bog‘langan bo‘lib, Bahromxon va Sarviniso kabi obrazlar orqali oilaviy tarikh, xalqning qiyinchiliklari va qarshilik ko‘rsatish ruhini yoritadi. Yozuvchining ijodi va qahramonlari o‘rtasidagi bog‘lanish asar voqealarini yanada boyitadi, har bir personaj o‘z hayoti va tarixi orqali umumiy milliy tajribani ifodalaydi.

Natijada, “Ajinasi bor yo‘llar” nafaqat shaxsiy hikoya, balki o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlarini tahlil qiluvchi muhim asar sifatida, o‘quvchilarga tarixiy xotirani yangilash va o‘z-o‘zini tanqid qilish imkonini beradi. Bu asar, Anvar Obidjonning ijodiy merosi va o‘z davriga bo‘lgan munosabati nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anvar Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘ZBEKISTON, 2015 – B. 51
2. Anvar Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘ZBEKISTON, 2015 – B.55
3. Anvar Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘ZBEKISTON, 2015 – B. 185
4. Anvar Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘ZBEKISTON, 2015 – B. 192
5. Anvar Obidjon. Ajinasi bor yo‘llar. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘ZBEKISTON, 2015 – B. 44-45 (432 bet)